

IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2024 yilning 1 yanvar holatiga 16 677 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2022 yilning shu davriga nisbatan 74,2 foizni tashkil qildi).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2023 yilning yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)

2021-yil




2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 73,7 foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 11,1 birlikni tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-dekabr holatiga 4 424 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 98,2 foizga kam demakdir.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

2022-yil




Savdo



Sanoat



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Qurilish



Boshqalar



2023-yil





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 30,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (27,4 %), sanoat sohasida (18,1 %), qurilishda (4,5 %) va boshqalar (19,4 %) tashkil etilgan.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 11 677,5 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 70,3 %) o'zlashtirildi va 2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 151,0 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 3 678,6 mlrd. so'mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 93,9 %) va 2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 628,6 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 24,4 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 6 469,2 mlrd. so'mlik ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 62,3 %) 2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 118,3 foizni tashkil qildi

– chakana tovar aylanmasi 2 376,5 mlrd. so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 25,1 %) 2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 foizni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 75,6 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 43,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 746,7 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 59,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 35 881,9 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 97,5 %) 2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 foizni tashkil qildi;


– avtomobil transportida 89 238,3 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 95,2 %) 2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 foizni tashkil qildi;

2023 yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi – 73,7 foizni, sanoatda – 24,4 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 97,0 foizni, qurilishda – 93,9 foizni, eksportda – 43,6 foizni tashkil qilgan.




Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2023 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (1 866,0 mlrd. so'm), Forish (629,1 mlrd. so'm), Paxtakor (365,4 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2023 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (2 119,7 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (1 124,4 mlrd. so'm), G'allaorol (625,6 mlrd. so'm) va Zomin (564,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2023 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
Jizzax viloyati	24,4	93,9	62,3	97,0
<i>shahar:</i>				
Jizzax	47,8	90,8	45,4	97,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	100,0	73,2	95,9
Baxmal	100,0	100,0	72,9	99,4
G'allaorol	1,5	100,0	78,2	99,4
Sharof Rashidov	66,4	100,0	85,5	98,6
Do'stlik	18,1	100,0	73,4	92,9
Zomin	43,4	79,8	71,9	91,5
Zarbdor	28,7	100,0	74,4	99,5
Zafarobod	4,0	99,9	60,4	99,0
Mirzacho'l	83,8	93,9	74,6	93,4
Paxtakor	52,2	100,0	66,6	94,1
Forish	93,1	100,0	78,5	99,2
Yangiobod	100,0	100,0	84,8	99,5

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (4,0 %), G'allaorol (1,5 %) tumanlarida kam, Arnasoy, Baxmal (100,0 %), Forish (93,1 %), Mirzacho'l (83,8 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Zomin tumanida (79,8 %), Jizzax shahrida (90,8%) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (45,4 %), Mirzacho'l tumani (60,4 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.